



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 4-noyabr, shanba,
131 (23.850)-son

**KUN
HIKMATI**

Iqtidori bilan
maqtangan
odam undan
ayrilgan
hisoblanadi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz



https://www.facebook.com/zarnews.uz



@zarnews_uz



https://twitter.com/zarnews_uz



FRANSUZ ALYANSIning FILIALI OCHILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makron 1-2-noyabr kunlari rasmiy tashrif bilan mamlakatimizda bo'ldi. Tashrif Samarqandda kechdi.

Emmanuel Makron 1-noyabr kuni Samarqandga kelishi bilan dastlab Registon maydoniga tashrif buyurdi. Shu yerda Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan uchrashdi. So'ngra davlat rahbarlari xalqaro turizm markazidagi "Boqiy shahar" majmuasiga bordilar.

Fransiya Prezidentini rasmiy kutib olish marosimi 2-noyabr kuni Kongress markazida o'tkazildi.

Prezidentlarning tor va kengaytirilgan tarkibdagi muzokaralarida mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar aloqalarning bugungi holati va istiqbollari atroficha muhokama etildi. Shuningdek, O'zbekiston va Fransiya tadbirkorlari biznes forumi o'tkazildi.

Samarqanddagi oliy darajadagi muzokaralardan so'ng Prezident Shavkat Mirziyoyev va Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron Fransuz alyansining Samarqand shahridagi filialiga tashrif buyurdilar.

Fransuz tili va madaniyatini targ'ib qilishga ko'maklashuvchi ushbu nohukumat notijorat tashkilot 1883-yilda Parij shahrida Jyul Vern va Lui Paster kabi o'z davrining atqoli shaxslari tashabbusi bilan tuzilgan. Bugungi kunda Fransuz alyansining 800 dan ziyod filiali dunyoning 137 ta mamlakati-

da faoliyat yuritmoqda.

Alyansning mamlakatimizdagi birinchi filiali 2015-yilda Toshkentda ochilgan edi. Madaniyat va til sohasidagi ikki tomonlama al-mashinuvlarni yanada kengaytirish maqsadida yaqinda Samarqand shahrida yana bir filial tashkil etildi.

Tashrif chog'ida davlat rahbarlari tasmani tantanali ravishda kesdilar va markazni ochib berdilar.

Prezidentlar zamonaviy jihozlangan markazning imkoniyatlari bilan tanishdilar. Bu yerda fransuz tili va adabiyoti bo'yicha o'quv kurslari tashkil etiladi. Markaz 200 nafargacha fransuz madaniyatiga qiziquvchilarni qabul qila oladi.

Alyansning Samarqanddagi faoliyati xalqlarimizni yanada yaqinlashtirish, o'zaro do'stlikni mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirildi.

Fransiya Prezidenti Emmanuel Makron mamlakatimizga rasmiy tashrifi doirasidagi tadbirlar yakunida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hamrohligida Mirzo Ulug'bek rasadxonasi va muzeyi, Amir Temur maqbarasi, Registon maydoni va Shohi Zinda yodgorlik majmuasida bo'ldi.

Samarqanddagi tarixiy obidalar mehmonlarda katta qiziqish va hayrat uyg'otdi.

Samarqandda Verona Yevroosiyo iqtisodiy forumi



Samarqand shahridagi "Ipak yo'li" turizm markazida XVI Verona Yevroosiyo iqtisodiy forumi bo'lib o'tmoqda.

Forum Italiyaning "Yevroosiyo anglaymiz" notijorat uyushmasi va O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tashabbusi bilan tashkil etildi. Tadbir avvalida O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri o'rinbosari J.Xodjayev va Rossiya Federatsiyasi hukumati raisi o'rinbosari A.Overchuk ikki davlat Prezidentlarining forum ishtirokchilariga yo'llagan tabrik so'zlarini o'qib eshittirdi.

Biznesni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan ushbu forumda tadbirkorlar o'rtasida erkin muloqot, biznes aloqalar va muzokaralar uchun keng imkoniyatlar o'rta tashlanmoqda.

Verona Yevroosiyo iqtisodiy forumi Italiyada (Verona) 2007-yildan beri o'tkazib kelinmoqda. 2022-yilda ushbu forumga Ozarbayjon (Boku) mezbonlik qilgan bo'lsa, joriy yilda forumni o'tkazish uchun Samarqand tanlangan.

Forumda Yevropa va Osiyoning yirik kompaniyalari va moliya institutlarining ekspertlari, siyosat va jamoat arboblari, vazirlar, mutaxassislar, diplomatlar, turli xalqaro va hududiy tashkilot vakillari qatnashmoqda. Mutaxassislar O'zbekistonning xalqaro iqtisodiy aloqalarini rivojlantirishdagi o'rni, savdo-investitsiya va texnologik hamkorlikning yangi mexanizmlari, zamonaviy sharoitda xomashyo va energiya bozorini rivojlantirish istiqbollari to'g'risida chiqishlar qilmoqda. Shuningdek, logistika va transport yo'nalishlarini qayta qurish, moliyaviy va bank xizmatlari bozorlari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish va jahon oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ekologik qishloq xo'jaligi imkoniyatlari, Yevroosiyo uchun muammo va im-

koniyatlar, katta Yevroosiyo makonida sanoat va texnologik hamkorlik istiqbollari borasida ma'ruzalar qildi. Mamlakatimiz vakillari ham energetika bozorini rivojlantirish, xalqaro bozorlarga chiqishda yangi yo'nalishlar ochish, eksport va logistika tarmog'ini kengaytirish, transport va temiryo'llarni manfaatli tashkil etish borasida fikrlarini bildirdi.

- Yaqinda Xitoy bilan Qozog'iston davlatlari o'rtasida ishlab kelayotgan yo'lakka muqobil ravishda yangi yo'lak ochildi, - deydi O'zbekiston Transport vaziri o'rinbosari Jasur Choriyev. - Keyingi ikki yilda bu yo'lak orqali avtotransportda yuk tashish boshlanib, bir yilda avvaligiga qaraganda yuk tashish hajmi 10 barobarga oshdi. Biz uchun ikkinchi dolzarb yo'lak - bu Transafg'on yo'lagi hisoblanadi. Bir necha kun oldin Toshkentda Pokiston, Afg'oniston, Rossiya, Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston davlatlarining transport vazirlari uchrashuvida Pokiston va Afg'oniston vakillari ham bu yo'lakni imkon qadar tezroq ishga tushirish taklifini bildirishdi. Bu yo'lak Janubiy va O'rta Osiyoni bog'laydigan asosiy va foydali yo'l bo'lishini ta'kidlashdi. Bu borada bir qancha ishlar amalga oshirildi, qayerlarda yer osti, yer usti ko'priklari qurish kerakligi o'rganildi. Hozirgi hisob-kitoblarga ko'ra, bu loyihaning qiymati 7 milliard dollarga baholangan. Loyiha 2024-yilda boshlanganda ham 5 yil vaqt kerak bo'ladi. Lekin bu vaqtgacha qarab turmasdan, shu yo'nalishda yuk tashish boshlandi va 9 oyda 670 ming tonna yuk tashildi.

Forumda Florensiya va Samarqandning hunarmandchilik ko'rgazmasi, kulolchilik mahsulotlari namoyishi etilmoqda.

**O'ktam XUDOYBERDIYEV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).**

**OBUNA -
2024**

**Jushkun TAGA,
turkiyalik jurnalist,
shoir va fotorassom:**

- "Zarafshon"
gazetasining o'z
tarixiy yo'li bor ekan.
Ushbu gazeta
O'zbekistonning
110 yillik tarixi
uchun oyna.



"Air Samarkand"ning ilk samolyoti keldi

2-noyabr kuni "Air Samarkand" aviakompaniyasining birinchi "Airbus A330-300" rususli samolyoti Samarqand xalqaro aeroportiga qo'ndi.

Shu munosabat bilan tashkil etilgan tadbirda viloyat faollari, jamoatchilik vakillari, "Air Samarkand" aviakompaniyasi va Samarqand xalqaro aeroporti xodimlari ishtirok etdi.

Tadbirda so'zga chiqqan viloyat hokimining o'rinbosari Rustam Qobilov va boshqalar yangi aviakompaniyaning ishga tushirilishi Samarqandning sayyohlik, madaniy va biznes markaz sifatida rivojlanishi uchun muhim voqea bo'lganini e'tirof etdi. Ushbu avialayner mashhur xalqaro yo'nalishlarga xavfsiz va sifatli xizmat ko'rsatadigan raqobatbardosh reyslarni amalga oshira olishi ta'kidlandi.

- "Airbus A330-300" - bu dunyoning yetakchi aviakompaniyalari taqdim etadigan zamonaviy va xavfsiz samolyotdir, - dedi "Air Samarkand" aviakompaniyasi bosh direktori Anton Xodjayan. -

Unda hatto eng uzoq yo'nalishlarda ham yo'lovchilar uchun yuqori qulaylik ta'minlanadi. Havo kemasi turistik-klassda 277 ta yo'lovchini va biznes-klassda 36 ta yo'lovchini tashish imkoniga ega. Samolyot 11 ming 500 kilometrdan ortiq masofaga to'xtovsiz parvozlarini amalga oshiradi. Ayni paytda dunyoda 1600 ga yaqin bunday samolyotlar muvaffaqiyatli parvoz qilmoqda.

Tez orada "Air Samarkand" aviakompaniyasining o'rta masofali yo'nalishlar uchun mo'ljallangan "Airbus A321" samolyoti ham keltirilishi kutilmoqda. Umuman, 2023-yil oxiriga qadar kompaniya 5 tagacha samolyotni qabul qilib, ishga tushirishni rejalashtirmoqda.

Tadbir qatnashchilari yangi havo kemasining qulaylik va imkoniyatlarini ko'zdan kechirdi.

B.MUSTANOV.



Saylov qonunchiligidagi o'zgarishlar ahamiyati nimada?

Samarqand shahridagi Yoshlar markazida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun mazmun-mohiyatini o'rganishga bag'ishlangan seminar o'tkazildi.



Viloyat yoshlari ishtirokida o'tkazilgan tadbirda Markaziy saylov komissiyasi kotibi Xudoyor Mamatov, Qonunchilik palatasi deputatlari Navro'z Rizayev va G'ayrat Abdiyev mazkur qonunni ishlab chiqish zaruriyati va u bilan mamlakatimiz saylov qonunchiligiga kiritilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalarning ahamiyati haqida so'z yuritdi. - Konstitutsiyaviy qonun loyihasida ikkita muhim masalaga alohida e'tibor

qaratilgan, - dedi Xudoyor Mamatov. - Birinchidan, Markaziy saylov komissiyasi boshchilik qiladigan markazlashgan saylov komissiyalarining vertikal tizimini tashkil etish, ikkinchidan, mamlakat saylov tizimiga aralash (majoritar, proporsional) saylov shaklini joriy etish nazarda tutilgan. Bu mamlakatimizdagi demokratik yangilanish jarayonlari, qonunchilikning takomillashtirishi, referendum va saylovlarda o'tirilgan

tajribalar va xalqaro amaliyot o'rganilishi asosida ishlab chiqildi. Saylov komissiyalari tizimiga kiritilayotgan o'zgartirishga muvofiq mamlakatimizda saylov komissiyalari tizimi - Markaziy saylov komissiyasi, hududiy saylov komissiyalari, tuman/shahar saylov komissiyalari, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlariga saylov o'tkazish bo'yicha okrug saylov komissiyalari, shuningdek, uchastka saylov komissiyalariga Markaziy saylov komissiyasi bevosita boshchilik qiladi. Bu barcha bosqichdagi saylovlarni tashkil etish va o'tkazishda milliy saylov qonunchiligining bir xilda qo'llanilishi va demokratik saylov standartlariga asoslangan yagona saylov amaliyoti shakllanishida ijobiy natija beradi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining aralash saylov tizimi asosida saylanishi esa siyosiy partiyalarning saylovchilar oldidagi mas'uliyatini va jamiyattadagi faolligini yanada oshirishga xizmat qiladi. Chunki qonun kuchga kirishi bilan saylovchilar na faqat nomzodlarga, balki partiyaning o'ziga, dasturiga ham ovoz beradilar.

Seminarda Qonunchilik palatasi deputatlari Konstitutsiyaviy qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonlari, unda belgilanayotgan normalar mohiyati haqida batafsil tushuncha berdi.

Tadbir davomida yoshlar o'zlarini qiziqitirgan savollarga javob oldi.

Shu kabi seminar viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasida tibbiyot xodimlari ishtirokida ham o'tkazildi.

Yurtimizga kirib keladigan suvning 80 foizga yaqini qo'shni davlatlar hududida shakllanadi. Biroq yer yuzida global iqlim o'zgarishi tufayli yaqin o'n yillikda qo'shni davlatlardan keladigan suv miqdori keskin kamayishi mumkin. Mutaxassislarning hisob-kitobiga ko'ra, 2050-yilga borib, suv resurslari Sirdaryoda 5, Amudaryoda 15 foizgacha kamayishi kutilyapti. Aholining o'sishi hisobiga respublikamizda 2030-yilga borib, suvga bo'lgan talab 7 milliard kub metr, 2050-yilga borib, 14 milliard kub metrgacha o'sadi.

SUV TEJOVCHI TEXNOLOGIYALAR

suv tanqisligining oldini olish va mahsulot hajmini oshirishda yagona yechim

Ana shu jihatlarni hisobga olgan holda agrar tarmoqda suv tejovchi texnologiyalardan keng foydalanish ommalashmoqda. Paxta, g'alla, poliz-sabzavot, bog'dorchilik, ozuqabop, moyli, dukkakli ekinlar va dorivor o'simliklar yetishtirish, bog'dorchilik yo'nalishlarida suv tejovchi texnologiyalarni joriy etgan xo'jaliklarga imtiyozli kreditlar ajratish va davlat tomonidan subsidiyalar berish tizimi joriy etildi.

Bunda Davlatimiz rahbarining tegishli qarorlari bilan suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish istagidagi xo'jaliklarga har gektar yer uchun 25 million so'mgacha kredit hamda 8-12 million so'mgacha subsidiya ajratilayotgani muhim omil bo'lmoqda.

Davlat tomonidan sohaga berilayotgan imtiyozlar tufayli mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish darajasi 80 foizga yetdi. Bu borada respublikamiz Markaziy Osiyoda birinchi, MDHda ikkinchi, Osiyoda to'rtinchi va dunyoda o'n uchinchi o'rinni egallaydi.

Jomboy tumanida 2017-2022-yillarda 6090 gektar maydonda suv tejovchi texnologiyalar joriy etilgan bo'lsa, joriy yilda 1240 gektar tokzor, bog' va boshqa maydonlarda ana shunday zamonaviy uskunalar o'rnatiladi.

Hozirgacha tashabbuskorlarning 18 milliard 823 million so'm o'z mablag'lari va 390 million so'm bank krediti hisobidan 821 gektar maydonda tomchilatib sug'orish texnologiyalari joriy etildi va qolgan maydonlarda qurilish-montaj ishlari yakunlanish arafasida, - deydi tuman irrigatsiya bo'limi boshlig'i Sherzod Salimov. - Hisob-kitoblarga ko'ra, bog' maydonini sug'orish uchun yiliga 4400 metr kub suv sarflanadi. Tomchilatib sug'orilganda esa suv sarfi 2,2-2,5 ming kub metрни tashkil etadi. Sabzavotchilikda bir gektar maydonga yiliga 11 ming metr kub suv talab



Hujjatlarda xato yozilgan ism-sharifni qanday to'g'rilash mumkin?

Tahririyatimizga Nurobod tumanidan murojaat tushdi. Unda aytilishicha, fuqaroning pasportiga ism-sharifi Turaqulov Jurabek deb imlo xatolari bilan yozilgan. Bu xato farzandlarining tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarda ham qayd etilgan. Fuqaro farzandlarining tug'ilganlik haqidagi guvohnomalarda ism-sharifini o'zbek tili imlo qoidalari asosida to'g'ri yozishni talab qilgan. FHDY xodimlari fuqaroga buning uchun avval o'z pasportidagi yozuvlarni va unga tegishli barcha hujjatlardagi yozuvlarni o'zgartirish kerakligini aytishgan. Murojaatchi bitta pasportimdagi imlo xatoni tuzatsam, boshqa hujjatlarimni ham tuzatamanmi, degan savol bilan murojaat qilgan.

Haqiqatan ham pasportda ism-sharif noto'g'ri yozilgan bo'lsa, uni tuzatgan fuqaro boshqa hujjatlaridagi imlo xatolarini ham tuzatadimi? Buning uchun qayerga murojaat qilishi kerak? Savollarimizga Samarqand shahar 1-FHDY bo'limi mudirasi Inobat Boboqulova quyidagicha javob berdi.

ISHNI NIMADAN BOSHlash KERAK?

Dalolatnoma yozuviga o'zgartirishlar, tuzatishlar va qo'shimchalar kiritish FHDY organi tomonidan fuqaroning arizasi asosida amalga oshiriladi. Bu haqda Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktabrdagi 550-sonli qarori, ya'ni "Fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari to'g'risida"gi nizomda belgilangan.

Fuqaro pasportidagi imloviy xatoni tuzatish uchun dastlab tug'ilganlik haqidagi guvohnomasi-ni o'zgartirishi zarur. Buning uchun fuqaro istalgan FHDY organiga ariza bilan murojaat qilishga haqli. Tug'ilganlik haqidagi guvohnomaga tegishli tartibda o'zgartirish kiritilgandan so'ng FHDY organi bu haqda fuqaroga ma'lumotnoma beradi. Shundan so'ng fuqaro ichki ishlar bo'limiga pasportini o'zgartirish masalasida murojaat etishi lozim. Pasportini tegishli tartibda o'zgartirganidan so'ng fuqaro o'ziga tegishli

qilinsa, zamonaviy texnologiya orqali 4,5-5 ming metr kub suv sarflanadi. Odatda, suv chiqishi qiyin bo'lgan, lalmikor maydonlarda nasos orqali suv olinadi. Bu esa mahsulot tanmarxini oshiradi. Zamonaviy texnologiya qo'llanganda, elektr sarfi, o'g'it, agrotexnik ishlov berish xarajatlari kamayadi, mahsulot hajmi ortadi. Suv tejovchi texnologiyaning afzalliklaridan kelib chiqib, tumanimizda shu kungacha 5645 gektar maydonda tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish va egiluvchan ko'chma quvurlar yordamida sug'orish yo'lga qo'yildi. Bu orqali 20-25 million kub metr suvni iqtisod qilish imkoniyati yaratildi. 2024-yil hosili uchun 1380 gektar g'alla maydonida yomg'irlatib sug'orish texnologiyasi joriy qilinadi.

Hozirgi kunda respublikamiz dehqonlari ko'proq Turkiya texnologiyasi asosidagi suv tejovchi texnologiyalarni afzal ko'rishmoqda. Shu bois turkiyalik ishbi-larmonlar bilan hamkorlikda viloyatimizda suv tejovchi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi korxonalar ko'paymoqda.

- Fermer xo'jaligimiz tasarrufida 30,8 gektar yer maydoni bor, - deydi tumandagi "Norqul bobo" fermer xo'jaligi boshlig'i Abdulla Norqulov. - 2021-yil may oyida Turkiyadan "Chandler" navli yong'oq ko'chatlarini keltirib ekdik. Tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy etish uchun o'sha yili "Agrobank"ning tuman filialidan 466 million so'm kredit oldik, 2022-yilda esa davlat tomonidan 221 million so'm subsidiya ajratildi. Bu uskunaning afzalligi bir vaqtning o'zida suvni to'rt bosqichda toza (filtr)laydi, o'g'it suv bilan birga beriladi. Har yili 5 gektargacha maydonda oraliq ekin ekib, tomchilatib sug'oraypmiz.

O'ktam XUDOYBERDIYEV.



Viloyat statistika boshqarmasiga ko'ra, 2023-yilning yanvar-sentabr oylarida xizmatlar sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat 314 trillion so'mni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-sentabr oylari bilan taqqoslaganda 6,5 foizga o'sdi.

Murojaatdan so'ng

bo'lgan nikoh guvohnomasi, voyaga yetmagan farzandlarining tug'ilganlik guvohnomalari, hatto unga tegishli mol-mulkka egalik huquqini beruvchi hujjatlarni ham o'zgartirishi zarur.

BUNING UCHUN QANCHA VAQT KETADI?

Dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish uchun fuqaroning FHDY organiga kiritgan arizasi murojaat kunidan boshlab 10 kun mobaynida ko'rib chiqiladi. Uzrli sabablar bo'lganda muddat bir oygacha uzaytirilishi mumkin.

TUZATISH UCHUN QANCHA PUL SARFLANADI?

Dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish uchun 49500 so'm gerb yig'imi, 33000 so'm davlat boji, 16500 so'm xizmat uchun, jami 99000 so'm to'lov qilinadi. Tezlashtirilgan tartibda dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritilgan taqdirda, ya'ni 3 ish kunida amalga oshirilsa, 66 ming so'm pullik xizmat haqi to'lanadi.

Agar dalolatnoma yozuvlariga o'zgartirish, tuzatish va qo'shimchalar kiritish FHDY organi xodimining xatosi sabab yuzaga kelgan bo'lsa, bunday holatda fuqarodan pul undirilmaydi.

OLIS QISHLOQDAGI “YULDUZ”lar YOXUD VAZIR SO'RAGAN MUSIQA MAKTABI

Yaqinda Paxtachi tumani-dagi Qarnab ota qishlog'ida joylashgan 33-bolalar musiqa va san'at maktabining yangi binosi foydalanishga topshirildi. Zamonaviy mebel jihozlari, musiqa asboblari bilan ta'minlangan maktab olis qishloqning iste'dodli bolalari uchun kerak edi, albatta.

- Ba'zida "San'at o'zi nimaga kerak?" degan gap-so'zlar quloqqa chalinganda, hayratga tushaman, - deydi maktab direktori Nafisa Shukurova. - San'atni o'rganish faqat shu sohani tanlaganlarga emas, barchaga kerak. O'zaro muomalada so'z tanlash ham aslida san'at. Tug'ilganimizdan boshlab so'nggi kunimizgacha san'at biz bilan birga. Maktabimizni har yili o'nlab bolalar bitiradi. Ularning barchasi san'atkor bo'lmas, ammo o'z yo'lini topib ketishi, keng dunyoqarashli inson bo'lishi aniq.

Mazkur muassasa 1979-yilda mahalla fuqarosi Naqshband Qahhorov tashabbusi bilan tashkil etilgan. 2023-yilda 1,4 milliard so'm mablag' evaziga maktabning yangi binosi qurilib, foydalanishga topshirildi. Hozirgi kunda bu san'at maktabida 220 nafar bola 8 yo'nalishda ta'lim-tarbiya olmoqda.

- Maktab tashkil etilganidan beri faoliyat ko'rsatib kelaman, - deydi "Madani-



yat va san'at fidokori" ko'krak nishoni sohibasi Sofiya Yo'ldosheva. - Avvallari binomiz abgor holatda edi. Stol-stullar yetishmas, musiqa asboblari ham juda eski edi. Yangi maktab qurilgach, barcha sharoitlar yaratildi. To'g'risini aytilish kerak, bir paytlar bu maktabga bolalarni ota-onalaridan iltimos qilib olib kelardik. Bugun ular o'zlari istab kelishyapti.

Shu yil 12-oktabr kuni Madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov Samarqandga kelganida muassasadagi ishlarni alohida e'tirof etgan edi.

- Vazir bilan uchrashuvda maktabimizga tashakkurnoma va yangi musiqa asboblari berildi, - deydi Nafisa Shukurova. - Shu olis hududlardagi maktablardan ham respublika va xalqaro tanlovlarda g'olib bo'ladigan iste'dodli yoshlar, yetuk

mutaxassislar yetishib chiqishiga ishonch bildirildi. Bu ishonchni oqlashga jamoamiz bilan birga harakat qilamiz.

Ixchamgina bu maskanda ko'plab mitti "yulduzlar" to'plangan. Jonli ijrodagi kuy-qo'shiqlar sizni hayratga soladi. Maktab o'quvchilari har yili viloyat va respublika ko'rik-tanlovlarida g'oliblar safidan joy olib kelmoqda. Qashqar rubobi sinfi o'quvchisi Alisher Barotov nogironligi

bo'lsa-da, tengdoshlaridan ortda qolmasdan musiqa va san'at sirlarini qunt bilan o'rganib, bir qator muvaffaqiyatlarga erishib kelmoqda.

- 8 yoshimda bu yerda o'qish istagi tug'ilgandi, - deydi Alisher Barotov. - Ota-onamga men ham mashhur san'atkor bo'lib, katta sahnalarda minglab muxlislar uchun konsertlar uyushtirish orzusida ekanligimni aytdim va ular meni shu maktabga o'qishga qo'ydi. Ko'plab tanlovlarda qatnashib, yuqori o'rinlarni egalladim.

San'at maktabida bolalarning ta'lim-tarbiya olishi uchun imkoniyatlar kun sayin kengayib boryapti. Ayni paytda muassasada yangi konsert zali ham barpo etilmoqda.

To'liqin SIDDIQOV, Fazliddin RO'ZIBOYEV (surat).

Xalqaro reytingda viloyat ichra birinchi o'rindamiz

Sog'liqni saqlash sohasida yildan-yilga takomillashgan holda xalqaro andazalar asosida ish olib borilayotir. Xalqaro andazalar - bu yangi, zamonaviy texnologiyalar, kasalliklarni aniqlaydigan tashxislash uskunolari, ularni ishlata oladigan professional mutaxassislar va shundan kelib chiqqan holda to'g'ri davolash muolajalarini olib boradigan shifokorlar demakdir. Bunday o'zgarishlar shohadagi ta'lim tizimining ham keskin islohini taqozo etadi. Bugun Samarqand davlat tibbiyot universitetida mana shunday yirik o'zgarishlar, yangiliklar amalga oshirilmoqda.

Ta'kidlash o'rinliki, Samarqand davlat tibbiyot universiteti Markaziy Osiyodagi tibbiyotga iqtisodlashgan ilk muassasa hisoblanadi. Hozirda bu dargohda 9 ta fakultet, 76 ta kafedra faoliyat yuritmoqda. Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari 8 ta, magistratura mutaxassislilklari 35 ta, klinik ordinatura ixtisosliklari 40 dan ortiq, qo'shma ta'lim dasturlari 17 tani tashkil qilmoqda. Bugungi kunda 8000 dan ortiq talabaga 624 nafar professor-o'qituvchi, jumladan, 71 nafar fan doktori, 231 nafar fan nomzodi dars bermoqda. Universitetda ilmiy salohiyat 48,4 foizni tashkil qilmoqda.

JA'HON VA MILLIY TAJRIBA UYG'UNLIGI

Bugun integratsiyasiz, muloqotlarsiz yuqori natijalarga erishib bo'lmaydi. Tibbiyotda jahon tajribasini uyg'unlashtirish maqsadida shu kunga qadar universitetimiz 106 ta xalqaro tashkilot bilan memorandum imzoladi. Jumladan, 75 ta oliy ta'lim muassasasi, 23 ta ilmiy markaz, 8 ta yirik tibbiy markaz-klinikalar bilan istiqbolli hamkorlik yo'lga qo'yilgan.

O'tgan yil 76 nafar professor-o'qituvchi xorijda malaka oshirdi, 25 nafari dunyoning nufuzli 1000 taligiga kiruvchi oliy ta'lim muassasalari o'quv mashg'ulotlarida qatnashdi, 122 nafar chet ellik o'qituvchi universitetning ta'lim jarayonida ishtirok etib, ma'ruza, seminar va mahorat darslarini o'tkazdi.

Xalqaro hamkorlik faqatgina o'quv mashg'ulotlari bilan cheklanib qolgani yo'q. 2022-yilda universitet rektori boshchiligidagi bir guruh xodimlar AQSHda xizmat safarida ko'lib qaytdi. Uchrashuv davomida akademik hamkorlikni oshirish, zamonaviy ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, shuningdek, Pittsburg universiteti tibbiyot maktabi o'rtasida hamkorlik shartnomasini amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Germaniyaning Kox ilmiy tadqiqot instituti 1-klinikamizda ilmiy laboratoriya tashkil etmoqda. Koreya Respublikasi Pusan milliy universiteti bilan amaliy telemeditsinani rivojlantirish rejalashtirilgan.

Buyuk Britaniyaning Kembrij universiteti bilan professor-o'qituvchilarning ingliz tili bo'yicha salohiyatini oshirish, tibbiyotda tilni o'qitishda yangi texnologiyalarni qo'llash yo'nalishlarida aloqalar o'rnatildi.

IKKI YIL ICHIDA 11 TA FAN DOKTORLIGI YOQLANDI

Universitetda oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash ko'lamini va maqsadlari o'zgardi. PhD va DSc ilmiy darajalarini berish

bo'yicha ilmiy kengashlar samarali faoliyat yuritmoqda. Ikki yil ichida universitet olimlari tomonidan 75 ta nomzodlik va 11 ta doktorlik dissertatsiyasi himoya qilindi.

Ta'lim muassasasida davriy ilmiy-amaliy jurnallarni nashr etish ilmiy aloqa infratuzilmasida nihoyatda muhim va zarur element hisoblanadi. 2020-yildan buyon Samarqand davlat tibbiyot universiteti 8 ta ilmiy-amaliy jurnallarni nashr eta boshladi.

Moliyaviy resurslarni jalb qilish maqsadida 50 ga yaqin loyiha arizalarining to'liq hujjatlari tayyorlandi. Hozirda innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan 6 ta loyiha talabnomasi moliyalashtirish uchun tavsiya etilgan. Ilmiy-innovatsion faoliyat bo'yicha mazkur loyihalarni amalga oshirish uchun 8,2 milliard so'm yo'natilirdi.

2021-2022-o'quv yilida 15 ta darslik, 117 ta monografiya, 239 ta uslubiy tavsiya, o'quv qo'llanmalar nashr etildi, olimlarimiz tomonidan 318 ta patent va dasturiy mahsulotlar uchun sertifikat olinishiga erishildi.

"REKTOR STIPENDIYASI" JORIY ETILGAN

Universitetimiz talabalari xalqaro va respublika miqyosidagi tanlovlar va konferensiyalarda faol qatnashib kelmoqda. 358 nafar talaba xalqaro va respublika olimpiadalarida faxrli o'rinlarni egallagan bo'lsa, 473 nafari konferensiyalarda sovrinli o'rinlarni qo'lga kiritgan. Bundan tashqari, 30 nafardan ortiq talaba xalqaro til sertifikatlariga ega, 13 nafar talaba ilmiy konferensiyalar doirasida o'tkazilgan "Eng zo'r innovator", "Yosh olim-2022" va "Eng zo'r yosh olimlar - 2022" nominatsiyalarida birinchi o'rinni egallashdi va ko'krak nishoniga ega bo'lishdi.

Universitetda Davlat stipendiyalaridan tashqari iqtidorli talabalarni saralash va ularni rag'batlantirish maqsadida "Rektor stipendiyasi" ta'sis etilgan. 2021-2022-o'quv yilida 130 nafar talaba o'sha stipendiyaga sazovor bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasalarining nufuzli xalqaro reytingi hisoblangan Times Higher Education e'lon qilgan 2022-yil uchun Impact reytingida (THE Impact Rankings 2022) mamlakatimizning 30 ta oliy ta'lim muassasasi o'rin egalladi. Samarqand davlat tibbiyot universiteti ushbu reytingdan respublika oliy ta'lim muassasalari ichida o'ninchi, Samarqand viloyati bo'yicha birinchi o'rinni qayd etmoqda.

Nargiza YARMUHAMMEDOVA, Samarqand davlat tibbiyot universitetining o'quv ishlari bo'yicha prorektori.



SAMARQANDDA ITALIYA YULDUZLARI JAM BO'LDI

**Samarqandda o'tkazilayotgan Verona
Yevroosiyo iqtisodiy forumi doirasida
madaniy tadbirlar o'tkazildi.**

Jumladan, Samarqand shahridagi "Sharq yulduzi" kinoteatrda O'zbekiston Kinematografiya agentligi va Milliy kinematografiyani rivojlantirish markazi hamkorligida italyan filmlari N.I.C.E kinofestivalining ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Mazkur festival 30 yildan buyon o'tkaziladi va asosiy maqsadi xorijda italyan filmlari targ'ibotidir.

Festivalning ochilish marosimida O'zbekiston Kinematografiya agentligi rahbari Firdavs Abduxoliquov, N.I.C.E kinofestivali rahbari Viviano Del Byanko, "Yevroosiyo o'rganamiz" xalqaro assotsiatsiyasi rahbari Antonio Falliko so'zga chiqdi.

- Mazkur festival Verona forumi doirasida ilk marta Samarqandda o'tkazilmoqda, - dedi Antonio

Falliko. - Kino san'ati xalqlarni birlashtirishda katta ahamiyatga ega. San'at, ijod insonlarni yaqinlashtiradi, ularning qarashlari, maqsadlari mushtarak ekanligini anglatadi. Kinofestival boy tarixga ega shaharda o'tkazilishi ham bejiz emas. Florensiya va Samarqand birodar shaharlar. Odam qarindosh tanlay olmaydi, ammo do'stini tanlash, u bilan doimiy aloqalarni mustahkamlash imkoniga ega. O'ylaymizki, bizning do'stligimiz san'at orqali yanada mustahkamlanadi.

Festivalda Italiya kinoijodkorlari tomonidan yaratilgan "La Lunga Corsa" ("Uzoq poyga") filmi namoyish etildi. Film ijodkorlari, xususan, uning rejissyori Andrea Manyani kartina komediya janrida bo'lishiga qaramay, kishining o'z qobig'iga o'ralashib qolishi bilan bog'liq falsafiy qarashlarni ham ifodalashini qayd etdi.

Festivalga afsonaviy qo'shiqchi Al Bano, Matia Bazarning qo'shiqlari shukuh berdi.



DEHQONOBODDA QISHDA ELEKTR MUAMMO BO'LMAYDI

**"Hududiy elektr tarmoqlari"
AJ Samarqand hududiy
filiali tomonidan OAV xodimlari
uchun Urgut tumani-
dagi "Dehqonobod" elektr
tarmoqlari korxonasiga
press-tur tashkil etildi.**

Urgut tumanida ikkita elektr tarmoqlari korxonasi faoliyat yuritadi. Jumladan, Q.Davronov rahbarlik qilayotgan "Dehqonobod" elektr tarmoqlari korxonasi tumandagi 30855 iste'molchiga xizmat ko'rsatadi.

- 2023-2024-yillar kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida 149 ta transformator punkti va 342,3 kilometr elektr uzatish tarmoqlari ta'mirlandi, - deydi korxona rahbari Qurbonali Davronov. - Joriy yilning noyabr

oyida yana qo'shimcha 5 dona transformator punkti va 10 kilometr elektr uzatish tarmoqlarini ta'mirlashni rejalashtirganmiz. Jumladan, Taroqli mahallasida 60 dona temir-beton ustunlar o'rnatilib, 2,96 kilometr SIP-2, 1,2 kilometr SIP-4 kabellari tortildi.

Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan, hududda qo'shimcha 496 dona temir-beton ustun va 9 ta transformator punkti o'rnatilib, qariyb 27 kilometr yopiq kabel tortilgan. Undan tashqari, hududdagi 15 ta mahalladagi tugatilgan obyektlar uchun 249 dona temir-beton ustun va 21,95 kilometr yopiq kabel o'rnatilgan.

- "Sariqtepa" nimstansiyasida 2 ta 16000 kWlik zamonaviy

transformator bo'lib, "Urgut" erkin iqtisodiy zonasining 30 dan ortiq korxonalarini elektr energiyasi bilan ta'minlamoqda, - deydi korxona bosh muhandisi Qobil Eshqulov. - Barcha iste'molchilarga "aqli" hisoblagichlar o'rnatilgan, ularning elektr ta'minoti onlayn tarzda boshqariladi.

Press-tur ishtirokchilari Dehqonobod mahallasidagi Qum qishlog'ida ustunlar o'rnatish va yopiq kabellar tortish jarayoni bilan tanishdi. Mazkur qishloqda 250 kWlik yangi transformator va 55 ta ustun o'rnatilib, 1800 metr masofaga kabel tortilgan.

Kuz-qish mavsumida avariya holatlarini bartaraf etish uchun 3 ta tezkor brigada va tungi navbatchilik tashkil etilgan.

Dilmurod TO'XTAYEV.

MO'L-KO'LCHILIKDA, BOY-BADAVLAT YASHASHNI XOHLASAK...

Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar xalqimizning ko'p yillar kutgan umidlarini ro'yobga chiqarishga, to'q-farovon hayot kechirishga imkon beradigan, uning tub manfaatlari va ehtiyojlariga mos keladigan milliy iqtisodiyotni shakllantirishga yo'naltirilgan. Tanlangan strategiya Yangi O'zbekistonga pirovard natijada iqtisodiy taraqqiyot pillapoyasidan boy tariximizda munosib o'rin olish uchun, O'zbekistonni dunyoning iqtisodiy jihatdan ustun rivojlangan mamlakatlardan biriga aylantirish, zahmatkash xalqining mo'l-ko'lchilikda, boy-badavlat hayot kechirish baxtiga muayassar qilish uchun real imkoniyatlar yaratib bermoqda. Bunday imkoniyat tarixda juda kam uchraydigan noyob iqtisodiy voqe'lik, faqat biz undan unumli foydalanishimiz kerak.

Yangi O'zbekistonni dunyoning iqtisodiy jihatdan qudratli davlatlaridan biriga aylantirishning uchta asosiy omili

Har qanday davlatning, jumladan, O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga va aholi-ning turmush darajasiga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatuvchi son-sanoqsiz omillar bor. Bizning nazarimizda, ushbu omillar qatorida Yangi O'zbekistonni qisqa muddatlarda dunyoning iqtisodiy jihatdan rivojlangan, taraqqiyotga yuz tutgan, andoza olishga arziydigan davlatlaridan biriga aylantirishning uchta asosiy omili mavjud.

Birinchisi, asrlar davomida ajdodlarimiz mehnati va aql-zakovati bilan yaratilgan, bugungi kunda biz o'z ehtiyojlarimiz yo'lida foydalanish baxtiga muayassar

bo'lgan bebaho tarixiy meros.

Ikkinchisi, Yaratgan saxiylik bilan bizga in'om etgan nodir va noyob tabiiy resurslar.

Uchinchisi, iqtisodiy taraqqiyotda tom ma'noda to'ntarish yasashga, bu boradagi ulug' maqsadni amaliy natijaga aylantirishga qodir, lekin vaziyat taqozosi bilan muayyan qismi xorijda bo'lgan ishchi kuchi resurslari.

Har uchala omilning ulkan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, Yangi O'zbekistonni aholi to'q va farovon hayot kechiradigan yurtga aylantirish avvalo, xalqning iqtisodiy savodxonligini oshirish bilan uzviy bog'liq.

Imkoniyatlar katta, lekin natijalar oqsayapti. Kim aybdor?

To'kin-sochinlikda, qulay sharoitlarda to'q-farovon hayot kechirish, boy-badavlat yashash ishtiyoqi barcha mamlakatlar xalqlariga xos. Mamlakatimizda ushbu maqsadga erishishga nima to'sqinlik qiladi? Iqtisodiyot sohasida chuqur bilimga ega bo'lmagan kishilarda nima uchun dunyoning ayrim mamlakatlarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan nominal yalpi ichki mahsulot 100 ming AQSH dollaridan oshib ketganda (Lyuksemburgda 135 ming AQSH dollari), bizning mamlakatimizda u atigi 2,3 ming (paritet xarid quvvati bo'yicha 6,9 ming) AQSH dollarini tashkil qiladi, degan savolning tug'ilishi tabiiy. Aksariyat kishilar buning asosiy sababi tabiiy boyliklarda bo'lsa kerak, deb o'ylaydi yoki boshqa haqiqatdan yiroq sabablarni ko'rsatadi. Lekin afsuski, kamdan-kam kishilar ushbu g'ayritabiiy paradoksal holatning asosiy aybdori o'zimiz ekanligimizni, mamlakatimizning iqtisodiy qudrati va kelajagi, xalqimizning mo'l-ko'lchilikda, boy-badavlat farovon hayot kechirishi faqat o'zimizga bog'liq ekanligini idrok etmaydi.

Tabiiy resurslarga juda qashshoq, lekin dunyoning iqtisodiy jihatdan qudratli mamlakatlardan biriga aylangan Yaponiya va aksincha, resurslarga juda boy, ammo qashshoqlikda, ayanchli ahvolda kun kechirayotgan ayrim Afrika davlatlari tajribasi mazkur muammoning asosiy yechimi moddiy boyliklarda emasligini ko'rsatadi. Mamlakatda qudratli milliy iqtisodiyotni barpo etish, uning real imkoniyatlaridan kundalik hayotimizda foydalanish baxtiga muayassar bo'lishning asl sabablari xususidagi o'zimizning ayrim fikr-mulohazalarimizni bayon etmoqchimiz.

Mo'l-ko'lchilikda, boy-badavlat yashashning yashirin siri

Shariat musulmon xalqini sabr-qanoatli bo'lish, boriga shukur qilish ruhida tarbiyalashni mo'ljal qiladi va hammaga ayonki, bu borada juda katta amaliy natijalarga erishdi. Lekin, u insonning halol mehnat qilib, to'q-farovon yashash yo'lidagi intilishlariga hech qanday to'siq qo'ygan emas. Aksincha, Yaratganning o'zi muqaddas zaminimizga nodir va noyob tabiiy resurslarni saxiylik bilan in'om etib, bizning boy-badavlat hayot kechirishimiz uchun real imkoniyatlar yaratib bergan. Lekin biz ushbu imkoniyatlardan unumli foydalana olmayapmiz. Jahon mamlakatlarining ko'p yillik ilg'or tajribasi shundan guvohlik beradiki, xalqning boy-badavlat yashashi mavjud imkoniyatlar bilangina emas, balki ushbu imkoniyatlardan unumli foydalanib, ularni hayotning real natijalariga aylantira olganlik darajasi bilan belgilanadi.

O'zbekiston tabiiy va mehnat resurslariga boy mamlakat. Ushbu resurslardan unumli foydalanish orqali ko'plab muammolarni uzil-kesil hal qilish mumkin. Bular sirasiga ishsizlik va aholi bandligini ta'minlash, xodimlarning daromadini oshirish, inflyatsion jarayonlarning oldini olish, mamlakat eksport salohiyatini yuksaltirish, uning jahon bozorida raqobatbardoshligini oshirish, mavqei mustahkamlash va boshqa bir qator muhim masalalarni kiritish mumkin. Ushbu dolzarb muammolarning muvaffaqiyatli hal etilishi birinchi galda, ushbu qimmatbaho resurslardan qay darajada unumli foydalanayotganligimizga bog'liq.

Qimmatbaho resurslardan foydalanish samaradorligi muayyan ko'rsatkichlar yordamida aniqlanadi: mehnat unumdorligi (ishchi kuchi resurslaridan foydalanish samaradorligi), kapital qaytimi (asosiy kapitaldan foydalanish samaradorligi), aylanma mablag'larning aylanish tezligi (aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligi), rentabellik (korxona faoliyatining samadorligi) va boshqalar.

**M.MUHAMMEDOV,
M.PARDAYEV,
iqtisod fanlari doktorlari,
SamiSI professorlari.**

(Davomi kelgusi sonda).

REKLAMA, E'LONLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

KORXONA, TASHKILOTLAR VA AHOLI DIQQATIGA!

**Xalq deputatlari Samarqand viloyati kengashining 2023-yil 1-noyabrdagi
VI-92-110-7-0-K/23 sonli qaroriga asosan, 2023-yil 16-noyabrdan
ichimlik suvini yetkazib berish va oqova suvini chiqarish bo'yicha
quyidagi tariflar kuchga kiradi:**

“Samarqand suv ta'minoti” MCHJ iste'molchilarga ko'rsatayotgan xizmat turlari	1 metr kub ichimlik suvi uchun (summa QQS bilan)			1 metr kub oqova suvi uchun (summa QQS bilan)		
	Aholi uchun	Budjet hisobidagi korxonalar uchun	Xo'jalik hisobidagi korxonalar uchun	Aholi uchun	Budjet hisobidagi korxonalar uchun	Xo'jalik hisobidagi korxonalar uchun
Samarqand viloyati	2500	6384	6384	1600	4816	4816

Samarqand viloyati hokimining 2019-yil 3-apreldagi 123-son qaroriga asosan, ichimlik suvi va oqova xizmatlari uchun kuchga kiradigan tariflarga 1 metr kub ichimlik suvi va 1 metr kub oqova xizmatlari uchun “Uy-joy kommunal xo'jaligini rivojlanritish jamg'armasi”ga 50 (ellik) so'm miqdorida ustama haqi hisoblanadi.

Yangi tariflar kuchga kirishi munosabati bilan aholidan, korxona va tashkilot rahbarlaridan ichimlik suvi va oqova xizmatlari bo'yicha mavjud qarzdorlikni 2023-yil 16-noyabrgacha to'liq to'lashlarini so'raymiz.

“SAMARQAND SUV TA'MINOTI” MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI.

BEKOR QILINADI

Past Darg'om tumanidagi “SAMARQAND BEST SEEDS” mas'uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 309587354) dumaloq muhri va burchak tamg'asi yo'qolganligi sababli bekor qilinadi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Axdod Muxtorova (2014-yil 5-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasida marhum Mansurov Mavlona (2012-yil 9-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Murtazayev Ulug'bek Rabbimovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Orzu Mahmudov ko'chasi, 12-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasida marhum Kasimov Rashitga (2020-yil 16-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Umarov Akmaljon Shavkatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasida marhum Tairov Islamga (2022-yil 17-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

Aslamovna notarial idorasida marhum Rashitova Sanoatga (2016-yil 29-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ahmedova Farangiz Aslamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Lutfiy ko'chasi, 80-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasida marhum Murodova Gulcheraga (2023-yil 24-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Ismoilova Shahlo Bahriloyevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 17-uy.

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Abdurahimov Abdualimiga (2022-yil 5-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasida marhum Tairov Islamga (2022-yil 17-dekabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Aliyeva Lola Zoirnova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 80-uy.

“Men Malalaman”:

Nobel mukofoti olgan asar haqida o‘ylar...

Malala Yusufzoy - pokistonlik inson huquqlari faoli, butun dunyo bo‘ylab xotin-qizlar uchun ta’lim olish imkoniyatini himoya qiladigan ayol timsolini gavdalanitirgan shaxs. Malala Yusufzoy 1997-yil 12-iyulda Pokistonning Mingora maskanida tavallud topadi. Faoliyatining dastlabki yillari 2012-yilda terrorchilik harakati janglarida og‘ir yaralanadi. 2014-yilda tinchlik uchun Nobel mukofoti laureati bo‘ladi. Shuningdek, Malala Yusufzoy bizga Christina Lamb bilan hammualliflikda “Men Malalaman: ta’lim uchun kurashgan va “Tolibon” tomonidan otib tashlangan qizning hikoyasi” nomli avtobiografik qissasini taqdim etdi. Ushbu asar Malala uchun katta imkoniyat eshigini ochdi.

Muallif bu asarda o‘z mamlakatidagi qizlar ta’limiga nisbatan to‘sqinliklar, ayollar huquqining poymol bo‘lishi haqida yozadi. Bir qancha qiyinchiliklarga qaramay, ilm olish hamda o‘zining va boshqalarning huquqlarini himoya qilishdan chekinmagan Malala ko‘plab yoshlarga o‘rnak bo‘ladigan ayol timsoliga aylanadi.

“Biz odamlar Allohning buyukligini anglay olmaymiz. U bizga foydalani-shimiz uchun aql, his qilishimiz uchun yurak kabi mo‘jizalarni hadya etgan. U bizning gapirishimiz va his-tuyg‘ularimizni ifoda etishimiz uchun lablarimizni, atrofimizdagi go‘zallikdan bahramand bo‘lishimiz uchun ko‘zlarimizni, xushbo‘y hidlardan bahramand bo‘lishimiz uchun burunni bergan. Alloh sari boradigan yo‘llardan yurishimiz uchun oyoqlarimizni va yaxshi amallarni bajarishimiz uchun qo‘llarimizni hadya etgan. Birortasini yo‘qotmagunimizcha ushbu organlar biz uchun qanchalik muhimligini anglay olmaymiz. Bir qulog‘im kar bo‘lganidan so‘ng buni o‘z tajribamdan angladim”, deydi u.

Malalaning ushbu so‘zidan anglashimiz mumkinki, asarni o‘qigan har bir kitobxonda avvalo, shukronalik hisi uyg‘onadi. Asar haqiqatan ham kitobxon kutmagan bir uslubda yozilganki, bu tahsinga loyiq.

Ma’lumki, Nobel mukofoti buyuk ilmiy izlanishlar, ixtirolar yoki madaniyat va jamiyat rivojiga katta hissa qo‘shganligi uchun har yili taqdim etiladigan eng nufuzli xalqaro mukofotlardan biri hisoblanadi. Asarda boblar ketma-ketligi, tinglovchini o‘ziga jalb etuvchi bo‘yoqdor so‘zlar, hajviyaga yo‘g‘rilgan holatlarda tabiiylik ufuri turganligi kishi ko‘z o‘ngida gavdalanadi.

Qiz yashagan muhitda barcha u tengilar paranchi o‘ragan bir paytda Malala hech qanday to‘sqinliklarsiz erkin yashaydi. Negaki, Malalaga otasi “Xayolingni bo‘lmasdan, orzularing



ummonida sayr qilaver. Men seni doim himoya qilaman”, deydi va uning suyangan tog‘i ekanligini isbotlaydi.

To‘g‘ri, boshida Malala ham teng-qurlari qatori ish tutdi, ammo buning xatoligini anglagan holda to‘g‘ri yo‘lni topdi.

Asarda Fayzullohga o‘xshagan kimsalar sababli Pokiston xalqining osmoni qora bulut bilan qoplangani tasvirlangan. Ziyouddin kabi o‘zini emas, butun bir xalqni o‘ylaydigan kishilar talqini orqali Fayzulloh yoki mulla niqobi ostida yashaydigan kimsalarga nisbatan teran fikrlar berilgan.

Badiiy asar tasviridagi eng og‘ir nuqta Malalaning avtobusda o‘q yuqor‘iri ostida qolishidir. Darhaqiqat, “Tolibon” jangarilari maktab avtobusiga ketma-ket o‘q otadi. O‘q Malalaning boshidan, yelkasidan, bo‘ynidan jarohatlab o‘tib, uning ortida o‘tirgan ikki nafar qizni ham jarohatlaydi. Malala og‘ir ahvolda Peshovar shahridagi harbiy gospitalga yetkaziladi. Malala komaga tushadi, tirik qolish ehtimoli juda kam bo‘lsa-da, shifokorlar yordami bilan omon qoladi.

Malala butun insoniyat uchun ibrat bo‘la oladigan xotin-qizlar vakilasi. Biz bugunga qadar To‘maris yoki shoir Zulfia, Saidaxonimlar kabi ayollarni o‘zimizga o‘rnak qilib ko‘rsata olgan bo‘lsak, bugun ularning safi yana bir nafarga ortdi. Bu ma’suma va kurashchan ayol - Malala Yusufzoy. U iroda timsoli, uning ta’lim olishiga hukumat ham, tolibonlar ham, tahdidlar ham, hatto bir emas, uch marotaba otilgan o‘q ham ta’sirini o‘tkazolmadi va u tik turib ta’lim olgan va tolibonlar tomonidan xo‘rlangan qizaloq timsolida xotiralarga muhrlandi.

Akbarxon ASROROV,
SamDU Urgut filiali dotsenti.
Charos YARASHEVA,
filial talabasi.

Ma’naviyat



tomir urishi, qon bosimi, nafas olishini tekshirib ko‘rdi.

- Zudlik bilan mana bu muoalajalarni boshlang, sun‘iy nafas olish apparatini ulang!

Ikki soatlardan keyin bemor o‘ziga keldi. - Qalaysiz, biroz tuzuk bo‘ldingizmi? - Jamshid bemorni yana obdon tekshirib ko‘rdi.

Jamshid kasallik varaqasiga ko‘z yugurtirdi: “Ashur Hakimov, yoshi 45 da, vokzalda hushidan ketgan. Tez yordam mashinasida shifoxonaga keltirilgan...”. Jamshid kasallik varaqasiga tashxis, tayinlangan muolajalarni qayd etib qo‘ydi. Bir haftadan keyin bemor o‘rnidan turdi, dori-darmonlar tufayli yuziga rang yugurib, bir necha kundan keyin sog‘lom holga keldi.

- Bugun sizga javob beramiz, - dedi Jamshid. - Dorilar yozib beraman, ichib turasiz, o‘zingizni ehtiyot qiling. Yurak bilan hazillashib bo‘lmaydi.

- Kechirasiz, do‘xtir, - uning gapini bo‘ldi bemor. - Aybga buyurmaysiz, otangiz bormi?

- U yoshligimizda bizni tashlab ketgan. - Kechiring, sizni ranjitmoqchi emasdim. - Nega qiziqib qoldingiz?

- Bir paytlar oilam, o‘g‘lim bor edi. Ismingiz ularni eslatdi. Qadriga yetmadim, ichkilik yo‘ldan ozdirdi. Xotinimga kun bermadim, zug‘umga dosh berolmay, o‘g‘illarimni olib, meni tashlab ketdi. Kechirim so‘rab, ularni qaytarib kelishga ahmoqona g‘ururim yo‘l qo‘ymadi.

- Xafa bo‘lmang, hayotda hamma ham qoqiladi. - Jamshid unga taskin berdi.

- Rahmat sizga, do‘xtir, o‘z otangizday g‘amxo‘rlik qildingiz, yaxshiligingiz mendan qaytmasa, Xudodan qaytsin.

- Qo‘ying, xijolat qilmang, bemorlarni davolash burchimiz-ku! Endi gap bunday, qo‘shni viloyatdan musofir ekansiz, bugun biznikiga borasiz, mehmonim bo‘lasiz, ertaga o‘zim sizni kuzatib qo‘yaman. Hozircha bemalol dam olavering, ish tugagach, olib ketaman, kelishdikmi?

- Baraka toping, do‘xtir, xijolatga qo‘ydingiz-da.

Jamshid chiqib ketgach, Ashur xayolga toldi: “Yaxshi yigit, o‘g‘limga adash ekan. O‘g‘lim qayerda, esonmikan?”. Xotini o‘g‘illarini olib, uni tashlab ketgach, topganini

ichib ko‘cha-ko‘yda sandiraqlab yurdi. Keyin o‘ziga o‘xshaganlarga qo‘shilib, markorlik qilish uchun Qozog‘istonga jo‘nab ketdi. Bir xonadonning qo‘y-qo‘zilarini boqish uchun yollandi. Kecha-kunduz suruv orqasidan sudralib yurar, it yotish, mirza turish. Qulga aylanib, umri xazon bo‘lgandi. Bir necha marta qochish payiga tushdi, biroq xo‘jayini hujjatlarini olib qo‘ygandi, bir zum ko‘zdan qochirmasdi. Shu tariqa yillar o‘tdi. Kasalmand, xarob bo‘lgan holda bir kuni qochishga muvaffaq bo‘ldi. Samarqand vokzaliga yetib kelganda qullikda o‘rttirgan kasali xuruj qilib, hushidan ketdi...

Jamshid ish vaqti tugagach, Ashurni uyiga olib ketdi. U Jamshidning mehmonxonasiga qadam qo‘yar ekan, tok urganday seskanib, devordagi ayol suratiga qarab qotib qoldi.

- Bu onam, - dedi Jamshid uning suratga tikilib qolganini ko‘rib. - Yoshligimda olamdan o‘tgan.

Ashur holsizlanib, Jamshidga suyanib qoldi.

- Sizga nima bo‘ldi?

- Suv bering, qon bosimim oshdi, she-

killi!

- Mana, iching! - Jamshid piyolada unga suv tutdi, - keling, stulga o‘tiring!

Ashur ko‘ksini changalladi, suv ichgach, sal o‘ziga keldi.

- Onangizning ismi Maqsad edimi? - dedi ovozi titrab.

- Ha, shunday! Siz qayerdan bilasiz?

- O‘g‘lim! - Ashur o‘kirib yubordi. - O‘g‘lim, Jamshid, men... men...

Jamshid darrov tushundi: “Nahotki? Yo‘q, yo‘q, mumkin emas”.

- Nima, nima deyapsiz? - u g‘uldirab, hushini yo‘qotayozgan mehmonni yelkasi-

dan tutib silkiladi.

- O‘g‘lim, men aqli noqis otangni kechir!

Jamshid ikki o‘t orasida qolgandi.

Onasini kaltaklab, yosh bolalari bilan uydan ketishga majbur qilib, iztirobda o‘lib ketishga sababchi kimsani qanday kechirsin?

Ikkinchi tomondan, qarshisida turgan, xatosi tufayli hayot shafqatsiz jazolab,

umrini xazon qilgan bechora otasi ekanligini bilgach, uning bag‘riga otilishdan o‘zini zo‘rg‘a tiyib turardi. Bo‘g‘ziga tiqilgan faryodni bosib, Ashurdan yuzini o‘girdi.

Tog‘aymurod SHOMURODOV.

Yangi kitoblar

Xalq og‘zaki ijodi va ohanglari bilan uyg‘un

Abdul Vali Samimiy (Abdualvali Jonuzoqov) 1953-yilda Qo‘shrabot tumanining Toz qishlog‘ida tug‘ilgan. U 1975-yilda Samarqand davlat arxitektura va qurilish institutini tugatib, mazkur dargohda talabalarga chizmachilik, kompyuter grafikasi, loyihalash fanlaridan dars beradi.

Abduvali Jonuzoqovning tanlagan kasbi adabiyotga daxldor bo‘lmasa-da, uning ijodga, she‘riyatga havasi baland edi. Hayotini yosh avlodga ilm berishga bag‘ishlagan pedagog ijodkorning she‘rlari ko‘p yillardan buyon viloyat va respublika matbuoti nashrlarida chop etildi. U keyingi yillardagi ijodiy mashqlarini “Muhabbat bekati” nomli she‘rlar to‘plamida jamladi. Kitob she‘riyat ixlosmandlarining e‘tiboriga tushdi.

Bir muddat oldin shoirning yana

ikkita – “Dardlarning olay dunyo” hamda “Zarradan viqorli tog‘lar yaralgay” deb nomlangan kitoblari nashrdan chiqdi. To‘plamlarda Abdul Vali Samimiyning keyingi yillarda yozgan she‘rlari, yoshlar tarbiyasiga oid qaydlari, hayotiy xulosalari o‘rin olgan.

She‘rlaridagi har bir satr ijodkorning boy hayotiy tajribasini o‘zida aks ettiradi, o‘quvchini mulohazaga chorlaydi. Ular xalq og‘zaki ijodi va ohanglari bilan uyg‘un.

S.MARDIYEV.



YALANGTO‘SH BU, YALANGTO‘SH BU

(qasida)

Bir o‘g‘lonki, bahodir deng, Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu, Pahlavonki, ko‘kragi keng, Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

Moziy deydi: ul bahodir, ulug‘ ishlarga ham qodir, Ancha burun bo‘lgan sodir Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

Izn so‘rab donolardin, Navoiydek daholardin, Angladim bebaholardin: Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

Nurotada o‘tdi yoshlik, pand bermadi hech beboshlik, Ulg‘aydi sabru bardoshlik Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

Taqdir siylab, Abdullaxon huzurida topib imkon, Harbiy ta‘lim olgan o‘g‘lon Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

Ko‘p o‘tmayin Buxoroda, o‘qib oliy madrasada, Izzat oshdi shu orada, Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

G‘amxo‘r xon ham qilmay nari, qo‘llab turdi yoshu qari, Yo‘lga tushdi Bag‘dod sari, Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

O‘n yettiga to‘lib yoshi, bo‘ldi taqvodor safdoshi, Uch hududda tumanboshi Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

Avval Bulung‘urda sorbon, keyin Loyish bo‘ldi makon, E‘zozladi Kattaqo‘rg‘on: Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

Samarqandda ul o‘ttiz yil hokimlik etdi muttasil, Ulusini qildi ahil Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

Epchil, botir, jasur polvon yovni jangda etib yakson, Olganu Otaliq unvon Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

Nogoh hujum qilgach Eron, boshlandi ko‘p to‘s-to‘polon, Hayiqmadi bundan hech on Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

Ko‘tardi tug‘ o‘zbek o‘g‘lon va qo‘lladi ahli jahon, Taxtda edi Muhammadxon, Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.

Jung‘or xitoy bosib kelgan, yov holini aylagan tang, Vatanparvar bo‘lgan chindan Yalangto‘sh bu, Yalangto‘sh bu.



Ismat SANAYEV.
(Qasidaning to‘liq shaklini ushbu QR-kod orqali Zarnews.uz saytida o‘qish mumkin).

Adabiyotga sadoqat va e‘tiqod masalasi avvalo, so‘z san‘atining kelajagi to‘g‘risida qayg‘urishdan boshlanadi.

Erkin VOHIDOV.



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O‘zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 331 nusxada chop etildi. Buyurtma 599. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E‘LONLAR: (66) 233-91-56

BO‘LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug‘ Tursunov ko‘chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo‘limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. **Korxona manzili:** Samarqand shahri, Spitamen ko‘chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da. Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

G.MO‘MINOVA.

Sahifalovchi:

A.ISMOILZODA.



Saytimizga o‘tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda